O'ZBEKISTON IQTISODIY RIVOJLANISHIDA INVESTITSIYA SIYOSATINING ROLI GERMANIYA TAJRIBASI MISOLIDA

Norbutayeva Kamola Ikromjonovna
Navoiy Innovatsiyalar Universiteti,
Iqtisod yo'nalishi,1-bosqich magistri

Kirish. So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish, xalq farovonligini oshirish hamda yangi ish o'rinlarini yaratish yo'lida bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda investitsiya siyosati muhim o'rin tutmoqda. Chunki investitsiyalar – iqtisodiy o'sishning harakatlantiruvchi kuchi bo'lib, yangi texnologiyalarni joriy etish, ish o'rinlarini yaratishga xizmat qilmoqda. Bugungi kunda mamlaktimizda investitsiya siyosati izchil rivojlanib bormoqda, xorijiy investorlar uchun qulay sharoitlar yaratilmoqda. Shu nuqtai nazardan Germaniya tajribasini o'rganish O'zbekiston uchun foydali bo'lishi mumkun. Germaniya iqtisodiyoti investitsiyalarni samarali boshqarish va uzoq muddatli rivojlanish strategiyasi bilan ajralib turadi.

O'zbekiston investitsiya siyosatining asosiy maqsadi – iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga sarmoyalarni jalb etish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va aholi turmush darajasini yaxshilashdir. So'nggi yillarda bu yo'nalishda muhum natijalarga erishilmoqda. Davlat tomonidan " Investitsiya faoliyati to'g'risida'gi qonun, davlat xususiy sheriklik dasturlari, soliq va bojxona imtiyozlari joriy etildi. Shuningdek, erkin iqtisodiy zonalar faoliyati ham kengaytirilmoqda.

Germaniya tajribasiga nazar soladigan bo'lsak, bu mamlakatda investitsiyalarni boshqarish tizimi uzoq yillar davomida shakillangan. Davlat iqtisodiyotdagi muvozanatni saqlab turadi, lekin xususiy sektorlarni erkinligini ham ta'minlaydi. Investitsiyalar, asosan, ishlab chiqarish, ilm fan, innovatsiya va ta'lim sohalariga yo'naltiriladi. Shu yo'l bilan Germaniya o'z iqtisodiyotini nafaqat ichki , balki xalqaro bozorda ham raqobatbardosh darajada saqlab kelmoqda.

O'zbekiston uchun Germaniya tajribasidan o'rganishi kerak bo'lgan jihatlari juda ham ko'p. Eng asosiysi - investitsiyaviy muhitning barqarorligi, shaffofligi va uzoq muddatli kafolatlar tizimini yo'lga qo'yishdir. Bu borada mamlakatimizda ham sezilarli darajada o'zgarishlar kuzatilmoqda. 2023-2025- yillarga mo'ljallangan " Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi"da investitsiyalarni jalb etish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Shu asosda raqamli iqtisodiyot, energetika, transport va qishloq xo'jaligi kabi sohalarga xorijiy sarmoyalar oqimi ortib bormoqda. Bundan tashqari, so'nggi yillarda investitsiya loyihalarini ro'yxatdan o'tkazish jarayonlari soddalashtirilmoqda, xorijiy investorlar uchun raqamli xizmatlar joriy qilinmoqda. Bu jarayonlar Germaniyada amalda bo'lgan "smart invest" tamoyillariga juda mos keladi.

Chunki Germaniya iqtisodiy siyosatida investitsiyalarni faqat moliyaviy qo'yilmalar sifatida emas, balki uzoq muddatli barqaror rivojlanish, innovatsiyalarni qo'llab quvvatlash va resurslardan samarali foydalanish vositasi sifatida talqin etilgan. Menimcha, O'zbekiston ham ana shunday yondashuvni amaliyotga joriy etishi juda mihim hisoblanadi. Chunki "Smart invest" yani " aqlli investitsiya" konsepsiyasi nafaqat kapitalning ko'payishini, balki ijtimoiy foyda, ekologik barqarorlik va texnologik yangilanishni ham o'z ichiga oladi. Shu ma'noda, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan modernizatsiya, sanoatni raqamlashtirish va yashil iqtisodiyot siyosati ham bu tamoyil bilan bevosita uyg'unlashadi.

Natijada, Smart Invest yondashuvi investitsiya samaradorligini oshirish, risklarni kamaytirish va iqtisodiyotning innovatsion salohiyatini kuchaytirish imkonini beradi. Shuningdek, O'zbekistonning xalqaro nufuzi ortib, investorlar ishonchi mustahkamlanadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, investitsiya siyosati O'zbekiston iqtisodiy rivojlanishining ajralmas qismi hisoblanadi. Investitsiyalar nafqat ishlab chiqarish hajmini oshiradi, balki yangi texnologiyalarni olib kiradi, yangi ish o'rinlari yaratadi va jamiyat farovonligini taminlaydi. Germaniya tajribasidan ko'rinib turibdiki, muvaffaqiyyatli investitsiya siyosati – bu uzoq muddatli rejalashtirish, inson kapitaliga sarmoya kiritish va jozibali iqtisodiyot bilan chambarchas bog'liqdir.

O'zbekiston ham aynan shu yo'ldan borayotganligi – iqtisodiyotimizning barqaror kelajagiga ishonch bilan qarash imkonini beradi. Eng muhimi, har bir sarmoya mamlakat taraqqiyoti va xalq manfaatiga xizmat qilayotganini unutmasligimiz lozimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni, 2022-yil
2. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi rasmiy sayti – www.miit.uz
3. Germaniya Federal Iqtisodiyot vazirligi ma'lumotlari – www.bmwi.de
4. Jahon banki hsobotlari, 2024-yil
5. Xalqaro iqtisodiyot jurnali maqolalari, 2023-2024- yillar.